

JAZ MUSIQASI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY DAVRLARINING RIVOJLANISH TARIXI

Мамаджонов Самандар Собиржон ўғли

Эстрада хонандалиги 2- курс талабаси

Annotatsiya: Ushbu maqolada jaz musiqasining paydo bolishi va rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Tomas “Fats” Valler va Dyuk Ellington kabi mashhur ijodkorlarning jaz musiqasiga qoshgan hissalari, shuningdek, ananaviy va zamonaviy jaz ortasidagi farqlar tahlil qilinadi. Shuningdek, XX asrning 40-yillardan boshlangan modern jaz yonalishlari va ularning hozirgi estrada musiqasiga tasiri muhokama qilinadi.

Kalit sozlar: jaz musiqasi, ananaviy jaz, zamonaviy jaz, Tomas Valler, Dyuk Ellington, blyuz, musiqa tarixi, ijodkor.

Аннотация: В данной статье освещены этапы возникновения и развития джазовой музыки. Анализируются вклад в джаз таких известных деятелей, как Томас «Фэтс» Валлер и Дюк Эллингтон, а также различия между традиционным и современным джазом. Кроме того, обсуждаются направления современного джаза, зародившиеся в 40-х годах XX века, и их влияние на эстрадную музыку.

Ключевые слова: Джазовая музыка, традиционный джаз, современный джаз, Томас Валлер, Дюк Эллингтон, блюз, история музыки, исполнитель.

Annotation: This article highlights the origins and developmental stages of jazz music. It analyzes the contributions of renowned artists such as Thomas “Fats” Waller and Duke Ellington, as well as the differences between traditional and modern jazz. Additionally, the modern jazz styles that emerged in the 1940s and their influence on contemporary pop music are discussed.

Keyword: jazz music, traditional jazz, modern jazz, Thomas Waller, Duke Ellington, blues, artist/performer.

Hozirgi kunda biz sevib tinglaydigan estrada qoshiqlari talaygina. Lekin ularning aynan qachon boshlanganini bilasizmi? Ushbu qoshiqlarning yuzaga kelishida va hozirgacha rivojlanishida “jaz” sanatining orni katta. Bu janrning boshlanishi esa XIX asrga borib taqaladi va juda qisqa vaqt ichida dunyoga mashhur boldi. Jaz sanati paydo bolishi bilan ommaviy musiqaning koplab yonalishlariga tasir korsatdi. Ushbu janr yangi cholgu asboblari, yangi mahoratlar va yangicha uslublarni oz ichiga olgan holda yangi ohanglarni kashf etdi. Chiroli janr vujudga kelganidan keyin XX asr klassik kompozitorlarining ijodiga ham tasir korsatdi (jumladan J. Gershvin va I. Stravinskiy).

“Jaz” atamasining kelib chiqishiga kelsak, musiqashunoslar turli taxminlarni ilgari surishadi. Amerika musiqashunosi Vintrop Sargent esa “jaz” atamasi 1920-yillarda shakllanganini aytadi. Ungacha esa boshqa atamalar, masalan, chas, jas, jasm, gism kabi sozlar ishlataligani. “Jaz” atamasini boshqa tillarga tarjima qilganda, inglizcha “chase” (taqib qilish, quvlash), fransuzcha “jaser” (tez gapirish) sozlari bilan boglaydilar. Bazi olimlar esa 1880-yillarda AQShning Nyu-Orlean shahrida istiqomat qilgan kreollar “shox kuylar”ga nisbatan ushbu atamani ishlatganlarini aytishadi.

Bu fikrlar ilmiy manbalarga asoslanadi. Olimlar turli kitoblarni, yozma manbalarni organib, bizga shu haqda malumot berishadi. AQShda “jaz” atamasi ilk bor 1913-yilda Amerikaning “San-Fransisko” jurnalida chop etilgan. Oradan ikki yil otgach, 1915-yilda T. Braunning orkestri “Tom Brauns Dixieland Jaz Band” nomi bilan ijod qilishni boshlagan. Jazning shakllanishiga

turtki bolgan janrlardan biri bu “spirichuel qoshiqlari”dir. Spirichuel qoshiqlari osha davrda cherkovlarda ijro etilgan va diniy qoshiqlar janriga kirgan. Ularni ayniqsa AQShning janubiy shtatlaridagi xristian cherkovlarida kichik xor yordamida kuylashgan va milliy musiqani qoshib ijro etishgan. Jazning milliy folklor musiqasidan kelib chiqqani sababli, hozirgi jaz ijrochilar ham folkordan keng foydalanib kelishmoqda.

Ulardan biri, Tomas “Fats” Valler, 1904-1943-yillarda yashab ijod qilgan jaz pioneri, kompozitor, organchi-xonanda, orkestr rahbari, bir soz bilan aytganda serqirra ijodkor hisoblanadi. U professional musiqachi bolganda bor-yogi 15 yoshda edi va shu yoshida ancha shon-shuhurat qozongan. Uning “Going to Chicago Blues”, “Kansas City Keys”, “Good Morning Blues” kabi mashhur blyuz asarlari mayjud. Shunday qilib, jazni ikki davrga bolish mumkin: yani ananaviy jaz va modern jaz (zamonaviy jaz). Bu ikki davrning farqlarini korib chiqish mumkin.

Ananaviy jazda asosan damli cholgulardan tashkil topgan orkestrlar korinadi. Bu davrning oziga xos jihatlaridan biri shuki, unda asosan oq tanlilar ishtirok etgan va bu yonalishni “Dixieland jaz” deb atashgan. Yaratilgan qoshiqlarni esa “Dixieland” deb nomlay boshlashgan. Ushbu davrning taniqli vakillaridan biri sifatida Dyuk Ellingtonni misol keltirish mumkin. “Dyuk” (Gertsog) ismi unga muhlislar va mutaxassislar tomonidan berilgan tahallusdir. Dyuk Ellington 1899-1974-yillarda yashab ijod qilgan kompozitor, mohir pianinochi, aranjirovkachi va orkestr rahbari bolgan. U nafaqat musiqachi, balki rassom ham bolgan. Hayotining sharoiti uncha yaxshi bolmaganligi sababli, oqishi uchun pulni barlarda jaz ijro qilib va reklama bannerlarini chizib, ogir mehnat orqali ishlab topgan. Aynan yoshligida musiqaga jiddiy kirishgani sababli uning mahorati yildan-yilga ortib borgan. Menimcha, inson yoshligidan katta mehnat qilsa, kelajakda uning mevasidan albatta bahramand boladi.

1918-yilda Dyuk Ellington oziga orkestr tuzadi va tez orada mashhur boladi. 1924-yilda guruhi bilan ozining ilk gramplastinkalarini yozadi. Shundan song u ozining eng gullagan davriga kiradi. 1933-yilda Yevropa mamlakatlari gastrol safarlariga chiqadi. 1950-60 yillarda esa AQSh, Yevropa, Osiyo va Lotin Amerikasida konsertlar otkazib, xalqining kongliga yol topadi va olqishlarga sazovor boladi. Ellingtonning ilk asarlarida ananaviy jaz yonalishini korish mumkin. Keyingi davr esa modern jaz (zamonaviy jaz) bolib, XX asrning 1940-yillarida bir nechta yonalishlarning paydo bolishi bilan shakllangan. Mutaxassislar manbalarga tayangan holda takidlashicha, modern jaz “bi-bop” hamda “Mintons Playhouse” yonalishlaridan boshlangan. Bi-bop boshqa yonalishlarga nisbatan murakkabroq edi. Aynan bi-bop yonalishi fri-jaz, modern-sving va hard-bop kabi yonalishlarning shakllanishiga asos bolgan. Bu yonalishlar hali hamon rivojlanib kelmoqda va estrada janrining kelajagi uchun hali uzoq yillar davom etishiga ishonamiz.

Ushbu mavzuda biz siz bilan jazning qanday paydo bolganligi va qanday rivojlanganligini korib chiqdik.

Foydalangan adabiyotlar royhati:

1. Shipton, A. (2001). *A New History of Jazz*. Continuum International Publishing Group.
2. Gioia, T. (1997). *The History of Jazz*. Oxford University Press.
3. Martin, H., & Waters, K. (2005). *Jazz: The First 100 Years*. Thomson/Schirmer.
4. Dahl, L. (1984). *Stormy Weather: The Music and Lives of a Century of Jazzwomen*. Quartet Books.
5. Ellington, D. (1973). *Music Is My Mistress*. Da Capo Press.